


**IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)**


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **68,1 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **8551** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,4** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 3188 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1848 ta, sanoat tarmog'ida 1640 ta, yashash va ovqatlanishda 534 ta, qurilish tarmog'ida 316 ta, tashish va saqlashda 191 ta tashkil etilgan.

**Korxonalar soni kesimida**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 68,1 foizi (2021- yil yanvar-dekabrda 69,9 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 5392,4 mlrd. so'mni (23,6 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5 561 tani tashkil etdi);



32740,7 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,1 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 7 699 tani tashkil etdi;



4461,4 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 27,6 foizi) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 86,7 foizni tashkil etdi;



- 5729,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 73,2 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 3466 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,7 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 86,3 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 6,3 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,2 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1012 tani tashkil etdi);




- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,5 foizi yoki 17539,5 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 50,5 foizi yoki 3759,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 12 298 ta




118,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 39,0 foizi) 122,8 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 50,3 foizi) (hisobot davrida 43 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 65 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi**




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	32740,7	98,1
Sanoat	5 392,4	23,6
Qurilish	5729,7	73,2
Chakana savdo	17539,5	85,5
Yuk tashish, mln tn.	20,7	86,8
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	76,7	91,2
Eksport, mln. AQSh doll.	118,3	39,0
Import, mln. AQSh doll.	122,8	50,3

## Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2022- yilda 38985 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (32584 ta) 119,6 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (124,5 %), sanoat (122,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (119,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (118,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (114,6 %), tashish va saqlash (114,4 %), hamda axborot va aloqa (112,2 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)*




**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**




Shahar va tumanlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (1 068,7 mlrd. so‘m), Kasbi (594,2 mlrd. so‘m), Qamashi (415,5 mlrd. so‘m), Koson (399,7 mlrd. so‘m), Kitob (373,1 mlrd. so‘m), Qarshi (337,4 mlrd. so‘m), Shahrisabz shahar (319,4 mlrd. so‘m), Chiroqchi (305,9 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Dehqonobod tumanida (113,6 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

### 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (4481,5 mlrd. so‘m), Shahrisabz shaharlari (1383,5 mlrd. so‘m) va Chiroqchi tumani (1383,5 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 68,1 foizni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga (69,9) nisbatan foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Kasbi va Koson tumanlari (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Muborak (95,8 %), Kitob (66,5 %) tumanlariga va eng past ulushi Shahrisabz shahri (7,2 %) to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Dehqonobod (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (83,3%), Kitob (80,3 %), Kasbi (80,1 %), Koson (79,0 %), Muborak (79,0 %), Yakkabog' (78,2 %), Shahrisabz (77,8 %), G'uzor (77,1 %), Mirishkor (76,7 %), Nishon (75,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.